



**1991-yildan  
chiqa boshlagan**

**Maxsus son**

**ISSN 2010-5584**

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я ПРЕПОДАВАНИЕ**  
**ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**L** **LANGUAGE AND LITERATURE**  
**TEACHING**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

**TOSHKENT VILOYAT CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI - 5 YOSHDA**



**Ushbu son**



**Dolzarb mavzu**

Og'zaki va yozma nutq –  
komillik belgisi

5  
bet



**Tahlil**

Hamid Olimjon lirikasida  
epitetning semantik-  
stilistik xususiyatlari

16  
bet



**Tadqiqotlar**

Navoiy lirikasida obrazni  
ifoda etishda ritm va  
mazmun uyg'unligi

49  
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

### Maxsus son.

#### Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODIOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'liqin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulxumor MIRZAYEVA  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)

#### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

#### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

#### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliya MUSURMANOVA

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.  
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturasini. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma \_\_\_ Adadi 2100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

#### MUNDARIJA

|                                                                                                                     |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda .....                         | 2  |
| <b>DOLZARB MASALA</b>                                                                                               |    |
| Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komillik belgisi .....                                                     |    |
| <b>ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR</b>                                                                              |    |
| Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi .....                             | 7  |
| Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish .....                                         | 8  |
| ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari .....                                                 | 8  |
| Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari .....                               | 11 |
| Tojixon Sabitova. Maqollar badiiyatiga doir .....                                                                   | 12 |
| Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mushtarakligi .....                                     | 14 |
| <b>TAHLIL</b>                                                                                                       |    |
| Mohizar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari .....                       | 16 |
| Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya .....                                                          | 18 |
| Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati .....                                            | 20 |
| Umida Shermatova. Tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limida binar ma'ruza metodi .....                                  | 22 |
| O'tkur Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - bebaho ma'naviy boylik! .....                                   |    |
| Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi .....                                                   |    |
| Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi .....                                  | 28 |
| Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni .....                            | 30 |
| Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Choriyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari ..... | 32 |
| Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlili .....                                    | 34 |
| Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kuzatishlar, tahlillar va takliflar .....                                      | 36 |
| Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mushtarak jihatlari .....       | 38 |
| Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir .....                  | 40 |
| Musajan Tadjibayev. Germenevtikada psixologik talqin muammolari .....                                               | 42 |
| <b>TADQIQOT</b>                                                                                                     |    |
| Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn .....                                                                | 44 |
| Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari .....                          | 46 |
| Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi .....                             | 49 |
| Arofotoy Muydinova. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati .....                   | 51 |
| Mohigul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini .....                                         | 53 |
| Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi .....                                       | 55 |
| Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari ..... | 58 |
| Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari .....                            | 60 |
| Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar .....                                 | 63 |
| Rahmatilla Norbekov. Munglig' qalblar kuychisi .....                                                                | 65 |
| <b>KICHIK TADQIQOT</b>                                                                                              |    |
| Qodirjon Mo'ydinov. Sud nutqi leksikasidagi o'zlashma so'zlar .....                                                 | 67 |
| Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati ..... | 69 |
| Xosiyat Abduqahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi .....                     | 70 |
| Dildora Yorbulovala. Hamza hakimzoda niyoziyning ashulalarida xotin-qizlar mavzusi .....                            | 72 |
| Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi? .....                                                         | 73 |
| Nodira Xolikova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi .....                                                        | 76 |
| Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - "xamsa" metodidan foydalanish usullari .....                              | 78 |
| Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini .....                             | 80 |

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining  
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

**Gulmira KOMILOVA,**

*Chirchiq pedagogika instituti Gumanitar fanlar  
fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti*

## TILSHUNOSLIKDA LINGVOKULTUROLOGIYA

*Rauf Parfi ijodida lingvokulturemalar xususiyatlari*



digmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir" [1].

V.Vorobyev "lingvokulturologiya — sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadryatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi", — deb ko'rsatadi. Ushbu tushunchalarning o'zaro farqli jihatlarini professor O'.Yusupov quydagicha izohlaydi. **"Lingvokulturema** — o'z semantikasida (ma'nos-

ida) madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi.

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi. Lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero, til — madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi" [2].

Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-o'zini anglash xususiyatini o'rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlashish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi.

XX asrning 90 – yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) paydo bo'ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazariyaning ildizi V. fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A. Maslova ushbu sohaning rivojini uch bosqichga ajratadi:

1. Fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. Fon Gumboldt, E.Benvnist, L.Vaysgerber, A.Potebnya, E.Sepir) kabi tilshunoslarning ishlari).

2. Lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi.

3. Lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik para-

“Madaniyat” lotincha “Colere” soʻzidan olingan boʻlib, “Ishlov berish, tarbiyalash, rivojlanish, hurmat qilish, ibodat” maʼnolarini anglatadi. XVIII asrdan boshlab “madaniyat” atamasi inson faoliyatining mahsuli boʻlgan barcha jihatlariga nisbatan qoʻllanila boshlagan. Bu maʼnolarning barchasi “madaniyat” soʻzining qoʻllanilishida saqlanib qolgan, ammo aslida bu soʻz “insonning tabiatiga maqsadli taʼsiri, tabiatning inson manfaatlariga uchun oʻzgartirilishi, yaʼni yerga ishlov berilishi” (*qishloq xoʻjalik madaniyati*) degan maʼnoni anglatgan. Keyinchalik “madaniyat” atamasi bilimdon, marifati, yuksak tarbiyali insonlarni tariflashda ham ishlatila boshlagan. Hozirga kelib “madaniyat” atamasining fan va amaliyotning turli sohalarida 500 dan ortiq variantda ishlatilishi maʼlum [3].

Madaniyatga berilgan taʼriflar umumlashtirilsa, *bütün tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha moddiy va maʼnaviy boyliklar yigʻindisi* deb taʼrif berish mumkin. Shunga asosan madaniyatning ikki turi farqlanadi: 1) moddiy madaniyat; 2) maʼnaviy madaniyat.

Moddiy madaniyat inson faoliyati tufayli yaratilgan “ikkinchi tabiat”, yaʼni ishlab chiqarilish vositalari, mehnat qurollari, mehnat koʻnikmalari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan hayot uchun xizmat qiladigan barcha boyliklarni anglatadi.

Maʼnaviy madaniyatning qamrovi behad keng boʻlib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari, yaʼni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, taʼlim-tarbiya, maktab, oʻrta va oliy taʼlim, fan, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari, sanʼat, xalq maʼnaviy ijodiyotning barcha turlarini qamrab oladi. Moddiy va maʼnaviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, biri ikkinchisini toʻldiradi. Masalan, moddiy boylikning biror turini inson aql-zakovatisiz, tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib boʻlmaydi. [4] Demak, moddiy madaniyatni barpo etish zaminida maʼnaviy madaniyat ham yotadi. Har qanday moddiy va maʼnaviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Maʼnaviy madaniyat voqealikka badiiy aks ettirish va oʻzlashtirish vositasidir. Moddiy madaniyat dunyo va insonlarning moddiy hayot sharoitlari bilan, maʼnaviy madaniyat esa urf-odat, rasm-rusm, anʼana, marosim va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Rauf Parfning ijodi oʻziga xos mavzu va poetik mazmun, obrazlar olami, janrlari va poetik shakllari, tili va stilistik usullari bilan ajralib turadi. Bizning ishimizning dolzarbligini ana shu masalalar belgilab beradi. Filologiya fanlari doktori, taniqli professor Hamidulla Boltaboyev modernizm va yangi oʻzbek sheʼriyati va

uning tadrij haqida fikr yuritarkan, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, millat boʻyniga mustamlakachilik zanjiri ilingandan soʻng besh yuz yil davomida istifodada boʻlgan goʻzallik qoidalari ijtimoiylik kasb eta boshlaganligini alohida eʼtirof etadi.

Rauf Parfi ijodida koʻplab lingvokulturemalar mavjud. Xususan, mana shu parchada antroponimik lingvokulturema qoʻllangan:

Abut-Turk tarixdan balki bir hikmat,  
Biroq sen borsan-ku Turon elinda.  
Shoir, soʻz aytmakka sen shoshma faqat,  
Ulugʻ **Alisherning** qutlugʻ tilinda.

Mana bu parchada ham antroponimik lingvokulturemik leksemalar uchraydi:

**Navoiy** baytiga oʻxshaydi yoʻllar,  
Bu toshlar **Hamzaning** qotili, hayhot!  
Nahotki umrbod oʻrtasa oʻylar,  
Umrbod zanjirband etsa xotiroʻt?!

Quyidagi parchada ham lingvokulturemalar uchraydi. Ular beshik va onajon leksemasidir.

Ul olis quyoshdir kuyinib yonar,  
Olis xotiroʻtlar oʻchmas falakda.  
Haqdan, Haqiqatdan koʻring, kim tonar?  
Dunyoviy alamning tiygʻi yurakda.  
**Vatan** deb atalgan **beshik**, **onajon**,  
Men uchun yopilgan eshik, **onajon**,  
Men sokin sollanib ilgʻab borarman.  
**Vatan** deb atalgan tobut qoʻynida,  
Chuvalgan bulutni qordek qorarman,  
Ruhimning panjasi chaqmoq boʻynida.

Turli xalqlar madaniyatida mavjud yuqorida keltirilgan oʻziga xosliklarning tilda aks ettirilishini oʻrganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Lingvokulturologiya tilshunoslikning yosh, yangi sohasi boʻlsa-da, biroq unda frazeologik, konseptologik, leksikografik va lingvodidaktik yoʻnalishlar shakllanib ulgurgan. Mazkur fanning asosiy vazifasi – til bilan madaniyatning bogʻliq tomonini, yaʼni madaniyatga oid tushunchalarning tilda va uning turli vositalarida ifodalanish usullarini oʻrganish, til va xalq mentaliteti oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni tavsiflashdan iborat. Lingvokulturologik tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga yaqin sohalararo miqyosda olib boriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirtojiev.M., Hozirgi oʻzbek tili. Toshkent: Oʻqituvchi – 1992. –B., 136.
2. Nurmonov. A., Tilshunoslikning nazariy va amaliy muammolari boʻyicha tanlangan maqolalar toʻplami. III jild.
3. Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyozova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. II qism. Toshkent – 2018.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. 5. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent – 2009. –B., 257.